



“Тасдиқлайман”
“Фарғонасувқурилишинвест” ДМ

Бош мухандиси

О.Абдуллаев

2022 й.

Бажарувчи ташкилотни танлаб олиш учун

Танлов хужжати

Фарғона 2022 йил

ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙУРШНОМА

ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ КИЙМАТИ

Танлов предмета: Фарғона вилояти Риштон туманилаги "Оқтомир" МФЙ худудидаги Обихаёт кўчасига 2 дона кудукдан оқава сув чиқариш, Боғистон, Оқтомир магистирал оқава сув тармоғини тортиш ишларига лойиҳа-смета хужжатлари таёрлаш. Танлов қиймати ҚҚС билан 30 000 000 сўм. Ушбу кийматдан ортиқ қийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва кўриб чиқилмайди. Тўловлар уч босқичда амалага оширилади. Махсулот бўйича Техник топшириқ танлов хужжатларининг техник қисмда илова қилинган.

Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиққан бажарувчи ташкилот билан шартнома тузилади.

1.1 Ишларни бажариш муддати: Ғолиб бўлган қатнашчи билан шартнома имзоланган кундан бошлаб тузилган далолатномасига асосан белгиланган график бўйича.

1.2 Ишларни бошлаш муддати-аванс маблағи ўтказилган кундан бошлаб ҳисобланади.

2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. **“Фарғона сувқурилиш инвест” ДМ** (бундан кейин - "Буюртмачи" деб аталади) - танлов ташкилотчиси ҳисобланади. Фарғона ш. Ал-Фарғоний кучаси 92 уй Эл.адрес: far. invest@minwater.uz

2.2. Танлов "Буюртмачи томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади.

2.3. Танлов Буюртмачи томонидан тузилган харид комиссияси томонидан қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1. Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, лойиҳа ташкилотлари иштирок этиши мумкин.

3.2. Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қўйилади: *

3.3. - ишлар (хизматлар)ни бажариш учун зарур булган меҳнат ресурслари ва мутахассисларнинг мавжудлиги;

- шартномалар тузиш юзасидан фуқаролик-муомала ҳуқуқий лаёқат ва ваколатлар;

- танлов объектига ўхшаш объектларда ишлаш тажрибасининг мавжудлиги;

- уз кучлари билан илгари бажарилган иш хажмлари туғрисидаги маълумотлар;

- танлов объектида уз кучлари билан бажариладиган ишларнинг мўлжалланаётган ҳажми (50 фоиздан кам бўлмаган ҳолда);

- лицензия, гувоҳнома

- иш стажи эга олий маълумотли қурилиш ёки ирригация мелиорация мутахассислига эга бўлган инженер-техник ходимлар, доимий ишловчи малакали ишчилар мавжудлиги.

- иштирокчи лойиҳа ташкилотининг молиявий ахволи.

- лойиҳд ишларини бажариш учун

агар танлов предмета булган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлиқ фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга булган талабгорларга рухсат этилади.

- қуйидаги талабгорларга танлов жараёнида иштирок этишга рухсат берилмайди: қайта ташкил этилиш (ажратилиши, қушилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик қелишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

4. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ

4.1. Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва ҳужжатлар, маълумотлар "Бунортмачи" ва "Иштарокчи" ихтиёрига қўра ўзбек ёки рус тилида тақдим этилиши мумкин.

4.2. Танлов иштирокчиси:

- факат битта таклиф бериши мумкин;
- тақдим этилаётган ҳужжатларнинг ҳақиқийлиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига тулик жавобгар бўлади;
- таклифлар бериш муддати тугагунга қадар уз таклифларини қайтариб олиш ёки узгартириш қиритиш ҳуқуқига эга.

5. ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ МУДДАТИНИ УЗАЙТИРИШ

5.1. Харид комиссияси танлов учун таклифларни қабул қилиш муддатини барча иштирокчилар учун таълуқли ҳолда эълон қилинган муддатдан яна 5-календар кунга узайтириши мумкин.

5.2. Таклифлар муддатини узайтирилиши факат харид комиссияси йигилиши қарори асосида амалга оширилади.

- танлов муддатини узайтириш тугрисидаги қарор махсус ахборот порталида жойлаштирилиши лозим.

6. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

6.1 Давлат харидлари тугрисидаги қонун талабларини бузган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар

6.2 Харид комиссияси давлат харидлари бўйича қонунчиликда белгиланган тартибда қолиб иштирокчиларни аниқлаш ва асосланган қарор қабул қилиш бўйича мажбурдир.

6.3 Танлов иштирокчиси тавдим этилган барча хужжатларни хакикийлиги ва тугрилигига жавобгардир. Голиб иштирокчи деб топилгандан сунг конунчиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан урнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

7. БОШҚА ШАРТЛАР

7.1 Давлат буюртмачиси танлов хужжатларига узгартишлар киритиш тугрисида танловда иштирок этиш учун таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин карор кабул килишга хакли. Товарни (ишни, хизматни) узгартиришга йул куйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддат танлов хужжатларига у^{3га}ртишлар киритилган санадан эътиборан камида у^н кунга узайгирилиши керак. Шу билан бир вақтда, агар эълонда курсатилган ахборот узгартирилган булса, танлов утказиш тугрисидаги эълонга узгартишлар киритилади.

8.2 Танлов иштирокчиси танлов хужжатлари коидаларини танлов утказиш учун эълонда белгиланган шаклда тушунтириш талаби билан давлат буюртмачисига суров юборишга хакли. Суров келиб тушган санадан эътиборан икки иш куни ичида давлат буюртмачиси, агар мазкур суров давлат буюртмачисига таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида икки кун олдин келиб тушган булса, ушбу суровга белгиланган шаклда жавоб юбориши шарт. Танлов хужжатларининг коидаларига дойр тушунтиришлар уларнинг мазмун-мохиятини узгартирмаслиги керак.

8.3 Таклифларни куриб чикиш ва бахолаш баённомаси харид комиссиясининг барча аъзолари томонидан имзоланади хамда ундан олинган кучирма имзоланган кундан эътиборан уч иш куни ичида махсус ахборот порталида эълон килинади.

8.4 Танловнинг исталган иштирокчиси таклифларни куриб чикиш ва бахолаш баённомаси эълон килинганидан сунг давлат буюртмачисига танлов натижаларига дойр тушунтиришларни такдим этиш тугрисида суров юборишга хакли. Давлат буюртмачиси бундай суров келиб тушган санадан эътиборан уч иш куни ичида танлов иштирокчисига тегишли тушунтиришларни тавдим этиши шарт.

8.5 Танлов натижалари буйича шартнома танлов хужжатларида ва узи билан шартнома тузилаётган танлов иштирокчиси томонидан берилган таклифда курсатилган шартлар асосида тузилади.



XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

QARORI

2022 - yil 12 - noyabr

VI-46-117-11-158-K/22

Rishton tumani hokimligi

Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashini VI-45-112-11-158-K/22 sonli qarori bilan ma'qullangan 2-ilovasini buyurtmachini belgilash qismiga o'zgartirish kiritish to'g'risida

Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining 04.11.2022 yil kungi "Mahalliy byudjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllanirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvatlash to'g'risida"gi VI-45-112-11-158-K/22 sonli qarori bilan VI-43-92-11-158-K/22 sonli qarorini 2-ilovasida ko'rsatilgan "Jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilli ro'yxati" da belgilangan buyurtmachilariga o'zgartirish kiritilib, "Oqtomir" MFY Obixayot ko'chasiga oqava suv chiqarish va Bog'iston Oqtomir magistral oqava suv tarmog'i tortish bo'yicha buyurtmachi etib "tuman Obodonlashtirish boshqarmasi" belgilangan.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi loyihada ko'rsatilgan va bajarilishi lozim bo'lgan ishlar hajmi bilan tanishib, ushbu ishlarni bajarishga imkoniyati yo'qligini ma'lum qilgan. Shu sababli ham tuman moliya bo'limi tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilgan taklifiga asosan "Farg'ona Suv qurilish Invest DM" tashkilotini buyurtmachi etib belgilab VI-45-112-11-158-K/22 sonli qarori bilan ma'qullangan 2-ilovani "buyurtmachini belgilash" qismiga o'zgartirish kiritish bo'yicha xujjatlar taqdim etilgan.

Yuqoridagilarni va kun tartibiga kiritilgan masala yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Rishton tuman Moliya bo'limi boshlig'i I.Djurayevni Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashini VI-45-112-11-158-K/22 sonli qarori bilan ma'qullangan 2-ilovada ko'rsatilgan "Rishton tumanida "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish" bo'yicha Manzilli ro'yxatda belgilangan buyurtmachini o'zgartirish to'g'risida bergan Axboroti va ilova etilgan xujjatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining 04.11.2022 yil kungi VI-45-112-11-158-K/22 sonli qarori bilan ma'qullangan 2-ilovasida ko'rsatilgan "Rishton tumanida "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish" bo'yicha Manzilli ro'yxatda belgilangan Oqtomir MFY Obixayot ko'chasiga oqava suv chiqarish va Bog'iston Oqtomir magistral oqava suv tarmog'i tortish bo'yicha buyurtmachi etib belgilangan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi nazarda tutilgan ishlarni bajarishga imkoniyati yo'qligi sababli buyurtmachini "Farg'ona Suv qurilish Invest DM" nomiga o'zgartirish xisobiga qarorning 2-ilovasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklif ma'qullansin.

3. Ma'qullangan "Manzilli ro'yxat" asosida:

-Tuman hokimligi Moliya bo'limi (I.Djurayev) tanlab olingan tadbirni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotiga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

-Tuman hokimligi hisobxonasi (F.Aminov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotiga mablag'lar yo'naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilot ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Halq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (A.Dexqonov) va tuman moliya bo'limi (I.Djurayev) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni

“Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining «Mahalliy byudjet, isloxlarni amalga oshirish, investtsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha» doimiy komissiyasi (D.Raxmonqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



С.Солиев

Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining
2022 yil 12 noyabrdagi
VI-46-117-11-158-K/22-son qaroriga
I-ilova

Rishton tumani "Tashabho' birligi" bo'limining 2-martabali savdosi bo'yicha byurmaxchisi o'zgartirish bo'yicha
jamoatdohir filtri asosida shakllangan radiorahbari mahallasi bo'yicha byurmaxchisi o'zgartirish bo'yicha

MANZILLI ROYXAT

№	Tahsil ID raqami	Tahsil o'qitkani	G'ARB RAHIL MA'LUUMATI		Amalgan oshirishdagi mahallasi nomi	To'plagan oshirish soni	Amalgan oshirishdagi qimmat	Nisbatda oshirishdagi mahallasi nomi	Byurmaxchisi nomi
			Qo'shicha mazmuni	Taqdim etilgan mahallasi nomi					
			Rishton tumani jami		xxx	51 760	5 908		
1	147060041	Radikali savdosi bo'yicha mahallasi	Qo'shicha mazmuni	Rishton tumani Qo'shicha MFY	Qo'riqlash	10414	1 200		Eng'eva S.M. qo'shicha bo'yicha JAM
2	1470600154	Radikali savdosi bo'yicha mahallasi	Qo'shicha mazmuni	Rishton tumani Qo'shicha MFY	Qo'riqlash	10400	1 200		Eng'eva S.M. qo'shicha bo'yicha JAM
3	1470600039	Radikali savdosi bo'yicha mahallasi	Qo'shicha mazmuni	Rishton tumani Qo'shicha MFY	Qo'riqlash	10312	1 100		Yusupov J.B. qo'shicha bo'yicha JAM
4	1470600094	Radikali savdosi bo'yicha mahallasi	Qo'shicha mazmuni	Rishton tumani Qo'shicha MFY	Qo'riqlash	10318	1 200		Rishton tumani Qo'shicha bo'yicha JAM
5	1470600013	Radikali savdosi bo'yicha mahallasi	Qo'shicha mazmuni	Rishton tumani Qo'shicha MFY	Qo'riqlash	10306	1 200		Yusupov J.B. qo'shicha bo'yicha JAM